



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 2-iyul

321-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 27-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Onkologik, gematologik va immunologik kasalliklarga chalingan bolalarga tibbiy yordam ko‘rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 21-maydagi PQ-183-son qarori ijrosini ta‘minlash haqida” 277-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida.

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 27-iyundagi “Viloyatda kasalliklar profilaktikasi sifatini oshirish, bolalarning onkologik, gematologik va immunologik kasalliklarini erta aniqlash va davolash, ularni davolash qamrovini kengaytirish va samaradorligini ta‘minlash, viloyatda yuqori texnologiyali tibbiy xizmatlarni yo‘lga qo‘yish, samarali dori vositalari bilan ta‘minlash, zamonaviy diagnostika va davolash standartlarini amaliyotga joriy etish, davlat tibbiyot muassasalari faoliyatini tashkil etish tizimini takomillashtirish, shuningdek, ushbu sohada ilmiy va kadrlar salohiyatini yaxshilash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-maydagi PQ-183-son qarori ijrosi haqida” 277-6-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 27-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Onkologik, gematologik va immunologic kasalliklarga chalingan bolalarga tibbiy yordam ko‘rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 21-maydagi PQ-183-son qarori ijrosi haqida” 275-6-0-Q/24-sonli qarori asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-maydagi PQ-183-son qarori bilan:

“O‘zbekiston–2030” strategiyasida onkologik kasalliklar sababli erta o‘limni 2,5 barobarga qisqartirish vazifasi belgilanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinishi;

Quyidagilar bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi sohasini rivojlantirishning ustuvor vazifalari etib belgilanganligi:

Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining bolalar saratoniga qarshi kurash bo‘yicha Global tashabbusida ishtirok etish doirasida 2030-yilgacha onkologik kasalliklarga chalingan bolalarning omon qolish darajasini 60 foizga oshirish;

ilg‘or xorijiy tajribaga asoslangan holda onkologik, gematologik va immunologik kasalliklarga chalingan bolalarni diagnostika qilish, davolash va rehabilitatsiya qilishning zamonaviy protokollari va standartlarini joriy etish;

gemopoetik o'zak hujayralari va suyak ko'migi hujayralarini transplantatsiya qilishni rivojlantirish;

bemor bolalarni zarur dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan uzluksiz ta'minlash;

soha uchun zamonaviy diagnostika, davolash va rehabilitatsiya qilish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, ushbu yo'nalishda ilg'or fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy tadqiqotlar olib borilishini tashkillashtirish;

Quyidagilar:

Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazi tomonidan bemor bolalarning omon qolishi borasida yuqori ko'rsatkichlarga erishgan yetakchi xorijiy tibbiyot klinikalari bilan hamkorlikda ushbu markaz faoliyatini zamonaviy tajribalar asosida tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha kelishuvga erishilganligi;

xorijiy hamkor tashkilot tomonidan Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazida yuqori samarali diagnostika qilish va davolashning klinik standartlari, protokollari va tavsiyalarini joriy etish, uning infratuzilmasini takomillashtirish va jihozlash, samarali boshqaruv tizimini yo'lga qo'yish, kadrlar salohiyatini oshirish jarayonlarini tashkil etishga ko'maklashish bo'yicha majburiyatlar olinganligi ma'lumot uchun qabul qilinishi;

Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markaziga uning kuzatuv kengashi bilan kelishgan holda ushbu markazni rivojlantirish konsepsiyasini (master-reja va boshqa texnik hujjatlarni) ishlab chiqish va amalga oshirish uchun yetakchi xorijiy tibbiyot klinikasi hamda injiniring va konsalting kompaniyasi bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzishga ruxsat berilganligi;

Sog'liqni saqlash vazirligining quyidagi takliflariga rozilik berilganligi:

a) Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazini Bolalar onkologiyasi, gematologiyasi va immunologiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi (keyingi o'rinlarda - Markaz) etib qayta nomlash;

b) Markaz faoliyatini samarali tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha kuzatuv kengashi (keyingi o'rinlarda - Kuzatuv kengashi) faoliyatini yo'lga qo'yish;

v) Markaz huzurida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan Onkologik va gematologik kasalliklarga chalingan bolalarni sog'lomlashtirishga ko'maklashish jamg'armasini (keyingi o'rinlarda - Jamg'arma) tashkil etish;

g) Markazda onkologik, gematologik va immunologik kasalliklarga chalingan bolalarni diagnostika qilish, davolash va rehabilitatsiya qilishning yangi modelini joriy etish bo'yicha tajriba-sinov loyihasini (keyingi o'rinlarda - tajriba-sinov loyihasi) amalga oshirish;

2024-yil 1-iyuldan boshlab onkologik, gematologik va immunologik kasalliklarga chalingan 18 yoshdan - 21 yoshgacha bo'lgan (21 yosh ham kiradi) bemorlar Markazda, Bolalar milliy tibbiyot markazi, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazlarining

bolalar gematologiyasi va onkologiyasi bo'limlarida, shuningdek, ular voyaga yetgunlariga qadar ushbu kasallik bo'yicha tibbiy yordam ko'rsatgan boshqa tibbiyot tashkilotlarida bepul davolanishni davom ettirishi;

Markaz o'rin-joy fondi 2024-yil 1-iyundan boshlab Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va tibbiy radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining bolalar onkologiyasi bo'limlari, shuningdek, Sog'liqni saqlash vazirligi tizimining davlat tibbiyot muassasalari o'rin-joylarini maqbullashtirish hisobidan 250 tagacha kengaytirilishi;

Quyidagilar:

Bolalar onkologiyasi, gematologiyasi va immunologiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi faoliyatining ustuvor yo'nalishlari 1-ilovaga muvofiq;

Bolalar onkologiyasi, gematologiyasi va immunologiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazining kuzatuv kengashi tarkibi 2-ilovaga muvofiq;

Onkologik va gematologik kasalliklarga chalingan bolalarni sog'lomlashtirishga ko'maklashish jamg'armasi faoliyatining ustuvor yo'nalishlari 3-ilovaga muvofiq;

Bolalar onkologiyasi, gematologiyasi va immunologiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturi 4-ilovaga muvofiq;

Bolalar onkologiyasi, gematologiyasi va immunologiyasi xizmatining tashkiliy tuzilmasi 5-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Iqtisodiyot va moliya vazirligi qarorni amalga oshirish, shu jumladan, Markaz hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazlarining bolalar gematologiyasi va onkologiyasi bo'limlarida dunyoning yetakchi klinikalarida qo'llab kelinayotgan diagnostika va davolashning klinik standartlari, protokollari va tavsiyalarini joriy qilish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash uchun:

2024-yilda O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan sog'liqni saqlash sohasiga ajratilgan mablag'lar doirasida;

2025-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti parametrlarini shakllantirishda zarur mablag'lar ajratilishini nazarda tutishi hamda Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasiga o'tkazib berilishini ta'minlashi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga 6-ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi;

Sog'liqni saqlash vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritishi e'tiborga olinsin.

3. Viloyat hokimining mazkur qarori bilan Sog'liqni saqlash boshqarmasi (A. Iminov):

2024-yil 1-iyuldan boshlab onkologik, gematologik va immunologik kasalliklarga chalingan 18 yoshdan - 21 yoshgacha bo'lgan (21 yosh ham kiradi) bemorlar viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazining bolalar gematologiyasi va onkologiyasi bo'limlarida, shuningdek, ular voyaga yetgunlariga qadar ushbu kasallik bo'yicha tibbiy yordam ko'rsatgan boshqa tibbiyot tashkilotlarida bepul davolanishini tashkil etshi malumot uchun qabul qilinsin.

4. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari lavozimiga ko'ra va tuman hokimining o'rinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



N.Xudoyberdiyev